

O'RTA OSIYONING ANTIK DAVRI MADANIYATI

Olimov Boburjon Baxromjon o'g'li
Qo'qon universiteti, Andijon filiali
Tarix yonalishi 1- kurs talabalari
E-mail: boburjonov489@gmail.com
Tel: +998 33 095 95 81

Abdulhayev Shahzobek Ravshanbek o'g'li
E-mail: shahzodbekabdulhayev7@gmail.com Tel: +998 88 217 57 57
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17896791>

O'rta Osiyo antik davri (miloddan avvalgi IV asrdan-milodiy III–IV asrgacha) mintaqa tarixidagi shahar madaniyati yuqori bosqichga ko'tarilgan davrlardan biri bo'lib, bu yillarda shaharsozlik, me'morchilik, mudofaa tizimlari va iqtisodiy markazlarning shakllanishi jadal rivojlangan. Bu davrda So'g'd, Baqtriya, Xorazm, Farg'ona va Qang'da O'rta Osiyoning antik davri shaharlari rivojlanadi.

O'rta Osiyoning antik davri miloddan avvalgi IV asrdan — Aleksandr Makedonskiy bosqinlaridan boshlanib, milodiy III–IV asrlargacha davom etgan murakkab tarixiy-madaniy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda hududlar siyosiy jihatdan Baqtriya podsholigi, Yunon-Baqtriya davlati, keyinchalik esa Kushonlar imperiyasi tarkibida bo'lib, bu jarayonlar mintaqaning madaniy qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Antik davr O'rta Osiyoda iqtisodiy taraqqiyotning sezilarli darajada kuchayishi, shahar madaniyatining yuksalishi, xalqaro savdo yo'llarining shakllanishi va ko'p madaniyatli tuzilmalar paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa Eron, Yunon, Hind, Baqtriya va Ko'hna Sharq sivilizatsiyalarining o'zaro sintezi natijasida boy moddiy va ma'naviy meros yuzaga kelgan. Bu davr arxeologik manbalarda ibtidoiy feodal munosabatlar va antik iqtisodiy modelning o'ziga xos uyg'unligi bilan xarakterlanadi.

Antik davrda O'rta Osiyoda yirik shaharlarning shakllanishi kuzatiladi. Antik davrning eng yorqin belgilaridan biri — O'rta Osiyoda yirik, murakkab tuzilishga ega shaharlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Shaharlar odatda qadimiy sug'orma dehqonchilik hududlarida, tabiiy vohalarda va savdo yo'llari kesishgan nuqtalarda shakllangan. Xorazm antik davrda mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan shaharlari va rivojlangan irrigatsiya tizimlari bilan ajralib turgan. Qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqal'a, Ayazqal'a kabi yirik markazlar bu hududning siyosiy va madaniy rivojini ko'rsatadi. Ayniqsa Tuproqqal'a saroyi o'zining saroy devoriy rasmlari bilan mashhur.

So'g'd vohasi o'zining savdo aloqalari bilan ajralib turadi. Afrosiyob (Samarqand), Kesh, Varaxsha, Panjikent kabi markazlar So'g'dning antik va undan keyingi davrlardagi madaniy yuksalishidan dalolat beradi. Bu shaharlar Ipak yo'li tizimida muhim rol o'ynagan.

Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Baqtriya Markaziy Osiyoning eng urbanizatsiyalashgan hududlaridan biriga aylangan. Baqtriya shaharlari — Oyxonum, Dalvarzintepa, Termiz, Qoratepa — yunon va mahalliy madaniyatlarning sintezi sifatida shakllangan. Ayniqsa Oyxonumda yunon polis tizimining ko'plab belgilarini uchratish mumkin.

Marg'iyona antik davrda ham o'zining qadimiy shahar madaniyatini davom ettirgan. Erk qal'a, Gonur tepa kabi yodgorliklarda arxeologik qatlamlar antik davrning ham davomiy shahar hayotidan darak beradi. Shuningdek, mintaqa Kushonlar davlati bilan aloqalarini mustahkam saqlab kelgan.

Farg'ona vodiysi qadimdan dehqonchilik va hunarmandchilik markazi bo'lib, antik davrga kelib yana ham yirik shaharlar tizimi shakllangan. Quva, Axsiket, Mingtepa Farg'ona vodiysidagi ilk antik markazlar savdo-sotiq va harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan.

Antik davrda O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati sezilarli yuksalishga erishdi. Bu davr me'morchiligi ko'p madaniyatli bo'lib, Sharqona va Ellinistik unsurlar uyg'unlashgan. Xorazmning Ayazqal'a, Qo'yqirilgan qal'a va Tuproqqal'a kabi markazlari kuchli istehkomlar bilan o'ralgan bo'lib, ular ko'p burchakli minoralar, keng qo'rg'onlar va ikki qavatli devorlar bilan mustahkamlangan. Bu inshootlar mintaqaning siyosiy beqaror davrlarida himoya tizimining ahamiyatini ko'rsatadi.

Baqtriyadagi Qoratepa va Fayoztepa — buddaviylik arxitekturasining yirik markazlari bo'lib, ular stupalar, monastirlar, freskalar va haykaltaroshlik bilan mashhur.

Xulosa qilsak, O'rta Osiyoning antik davri (miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha) keng qamrovda o'rganilmoqda. O'rta Osiyoning antik davri turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir davri bo'lganligi aniqlandi. Bu davrda mintaqada saklar, massagetlar, xorazmlilar, so'g'diylar, baqtriyaliklar va boshqa ko'plab xalqlar yashagan. Ularning har biri o'ziga xos madaniyat va an'analarga ega bo'lgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ibragimov.R.Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -Toshkent, 2020
2. Egamberdieva N. Arxeologiya. Darslik. -Toshkent, 2022.
3. Islomov O'. Qadimgi O'zbekiston Tarixi va Arxeologiyasi. – Toshkent, 2012.